



**ONLAYN ARBITRAJ JARAYONLARINI OLIB BORISHNING HUQUQIY
TARTIBI**

Safarov Asilbek Zafar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universitet Xalqaro huquq va Qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabsi

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda global hayotning deyarli ajralmas qismiga aylanib ulgurgan kiber makonda olib boriladigan onlayn arbitraj jarayonining huquqiy tartibi hamda ushbu jarayonga nisbatan an'anaviy yoki yangi huquqiy tartibni qo'llash bo'yicha ilmiy qarashlar unga nisbatan amalda qo'llanadigan protsessual va moddiy huquq masalasi, shuningdek, UNCITRAL namunaviy qonunning qo'llanish bo'yicha huquqiy amaliyot, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi qiyosiy tahlili, bundan tashqari, onlayn arbitraj jarayonning ijobiy va salbiy jihatlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: ODR, ADR, elektron pochta, elektron imzo, electron tijorat, SMS, Face-ID, CD-ROM.

Абстрактный: В данной статье судебная процедура онлайн-арбитражного процесса, проводимого в киберпространстве, ставшего практически неотъемлемой частью глобальной жизни, и научные взгляды на применение традиционной или новой судебной процедуры по отношению к этому процессу, вопросы процессуального и материального права, а также, сравнительный анализ юридической практики модельного закона ЮНСИТРАЛ и законодательства Республики Узбекистан, кроме того, были обсуждены положительные и отрицательные стороны онлайн-арбитража.

Ключевые слова: ODR, ADR, электронная почта, электронная подпись, электронная коммерция, SMS, Face-ID, CD-ROM.

KIRISH

Bugungi zamонавиј дуньода технолоѓијалар, onlayn kommunikatsiya vositalari jamiyat hayotida tobora muhim o'rin egallab bormoqda. O'z navbatida texnologiyalar nizolarni muqobil hal etish (Alternative Dispute Resolution – ADR)ning globallashuviga olib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, nizolarni muqobil hal qilish jarayoni onlayn arbitraj jarayonlarida elektron vositalar, onlayn platformalar, shuningdek, sud dasturlaridagi ishlarni avtomatlashtirilgan tarzda boshqaradigan vositalar endi mavjud. Olingan nazariy ma'lumotlarning tahlili asosida ushbu maqolada onlayn arbitrajning o'ziga xos jihatlarini, undagi afzalliklar va kamchiliklarni ilmiy nazariy tahlil qilish maqsadga muvofiq. Onalayn arbitraj nizolarni onlayn hal qilishning asosiy tarkibiy qismidir. Arbitraj tomonlarga o'zlarining shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan har qanday masalani onlayn tarzda hal qilish imkonи beradi. Onlayn arbiraj birinchi navbatda biznesdan biznesga (b2b) transchegaraviy tijorat ziddiyatlarini hal qilishda ham ishlatiladi, lekin u an'anaviy transchegaraviy tijorat nizolarini hal qilish uchun ham ishlatilishi mumkin. Shu sababli, har kuni yuzaga keladigan ko'п sonli kichik qiymatli nizolarni hal qilishning mantiqiy yechimi sifatida Internetda suddan tashqari nizoni hal qilish vositalariga murojaat qilish g'oyasi -



Onlayn nizolarni hal qilish (ODR) hozirgi kunda keng ommalashmoqda. Nizolarni onlayn hal qilish - bu axborot texnologiyalari (IT) yordamida nizolarni hal qilish jarayonlarini tavsiflovchi umumiy atama.⁹ Nizolarni onlayn hal qilish" (ODR) turli odamlar uchun har xil narsalarni anglatadi. Negaki atamaning turli xil qo'llanilishini jamlagan holda aytish mumkinki, ODR nizolarni muqobil hal qilish uchun qo'llaniladigan axborot texnologiyalari, internet va telekommunikatsiya orqali amalga oshiriladigan protsess. ODR arbitrajga axborot texnologiyalari va masofaviy aloqani qo'llaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, ODR aslida ADRning avlodidir. ODR tushunchasi 2016-yilda „Nizolarni onlayn hal qilish bo'yicha texnik reglament"ga muvofiq fuqarolik muomalasiga kiritilgan. ADR singari, u odatda ko'proq samaradorlik, ko'proq tomonlar nazorati va arzonroq xarajatlar bo'yicha sud jarayonlaridan bir xil afzalliklarga ega aslida, yuqori texnologiyalarni joriy etish sud muhokamasiga nisbatan ADRning ushbu afzalliklarini oshiradi¹⁰.

Arbitraj – bu bir qator rasmiyatichilik va protsessual qoidalarni o'z ichiga olgan xususiy sudlovning bir turi. Bu kuchliroq va rasmiy normalar bilan tartibga solinadigan muqobil nizolarni hal qilishning bir turi bo'lib, jarayonning tuzilishi, narxi, qaror qabul qilish kuchi va boshqa ko'plab omillar nuqtai nazaridan mediatsiyadan sezilarli farq qiladi. Texnologiya va internetning rivojlanishi ushbu muqobil nizolarni hal qilish tartib-qoidalariiga yangicha ko'rinish berdi. Onlayn arbitraj nizolarni onlayn hal qilish usuli bo'lib, unda nizolar tomonlar bilan jismonan mavjud bo'lishdan ko'ra virtual platformalar yordamida ko'rib chiqiladi. 1990-yillarda nizolarni hal qilish jarayoni sifatida ODR tushunchasi o'rnatildi. U ikki formatda, ya'ni kiber sohadagi onlayn muammolarni hal qilish va haqiqiy dunyoda paydo bo'ladigan, ammo virtual tarzda hal qilinadigan muammolarni hal qilishda amalga oshirilishi mumkin. Tomonlar ushbu kelishmovchiliklarni onlayn nizolarni hal qilish xizmatlarini taklif qiluvchi ko'plab internet saytlari yordamida hal qiladilar. Elektron arbitrajning joriy etilishi elektron sud tizimi bilan solishtirish mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga kamroq darajada bo'lsada duch keldi, chunki u ko'proq protsessual va texnologik moslashuvchanlikka ega bo'lgan xususiy protsedura hisoblanadi.

ASOSIY QISIM

Onlayn arbitraj jarayonini amalga oshirishning ilmiy-nazariy tahlili

Elektron arbitraj sudlarining xulosalari va arbitraj kelishuvlari qonuniyligi masalalari ko'plab bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda. Chunki onlayn arbitraj muhokamasi qatnashchilari ko'pchilik texnik tizimlarning samaradorligi va ishonchligi elektron arbitraj platformasi provayderlarining xolisligi va taraflar tomonidan tizimlardan foydalanishdagi nomutanosibliklardan xavotirda. Shunday bo'lsada, murakkab bo'lмаган ishlarda elektron arbitrajdan foydalanishga qaratilgan global tendensiya mavjud, bu model, shubhasiz kelajakda elektron sudlovning o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Jana Herbochkovning so'zlariga ko'ra, nizolarni onlayn hal qilish kiber makonning o'ziga xos tabiatiga moslashtirilgan muqobil nizolarni xal qilish mexanizmlarining yangi shakli sifatida ishlab

⁹ [s://www.nortonrosen.com/en/knowledge/publications/71e0aa1e/onlayn-dispute-resolution-and-electronic-hearings](http://www.nortonrosen.com/en/knowledge/publications/71e0aa1e/onlayn-dispute-resolution-and-electronic-hearings)

¹⁰ Hornle, Julia, Onlayn Dispute Resolution- More Than the Emperor's New Clothes, The ICFAI Journal of Alternative Dispute Resolution, Vol. 03 (04), October 2004, pp.29-59 (29)



chiqilgan. Muallifning fikriga ko'ra, kompyuter texnologilaridan foydalanish arbitraj jarayoniga ta'sir ko'rsatib uni soddalashtiradi¹¹.

J.Herbochkovaning takidlashicha, onlayn arbitraj onlayn nizolarni xal qilish uchun ko'proq mos keladi. Sababi, ular texnik jihatdan murakkab masalalarni hal qilish uchun ko'proq mos kelishi, tez o'zgarishlarga tezroq javob bera olishi va delokalizatsiya qilingan tranzaktsiyalar uchun yaxshi sharoit yaratish bilan arbitraj uchun ahamiyatlidir.

Xalqaro Tijorat Arbitiraji sohasida onlayn arbitraj tizimi Buyuk Britaniyada 2002-yilda joriy etilgan. Buyuk Britaniyada onlayn arbitraj jarayoni dastlab kam ahamiyatli kichik biznesga oid bo'lgan kichik da'volarni ko'rishdan boshlangan. Masalan, qarzdor bo'lgan shaxsga qarshi harakatlar va qarzdor shaxs tomonidan rad etilgan taqdirda, qarzini to'lashi uchun da'volar ko'rinishida. Shunday ekan bugungi kunda Buyuk Britaniyada onlayn arbitraj va elektron arbitrlik xizmati nizolarni elektron hal qilishdagi muvaffaqiyatlardan biri sifatida qaraladi¹².

Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, onlayn arbitraj haqiqatan ham an'anaviy arbitraj qoidalar, tamoyillari va usullarini takomillashtirdi. Ushbu tadqiqot haqiqatan ham onlayn arbitrajning har bir jihatini qamrab oluvchi tizimiga ega bo'lishi mumkinligi haqida nazariyani ilgari surdi. Hozirgi kunda kiber makonda faoliyat olib borish to'liq tartibga solinmagan hamda globallashib borayotgan bu davrda yangi-yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi arbotrajning bu shaklining xavfsizligiga ta'sir qilmay qolmaydi. Shu va boshqa shunga o'xshash xavfni oldini olish maqsadida nizolarni onlayn hal qilish bo'yicha texnik reglamentiga muvofiq fuqarolik muomilasiga kiritilgan, hamda ushbu hujjatda nizolarni onlayn hal qilish, vositachilik, muzokaralar yoki arbitraj shu uchta yondashuvning kombinatsiyadan iborat ekanligi qayd etilgan.

Umumiy qabul qilingan hujjatga ko'ra, ODR jarayoni uch boshqichni o'z ichiga olish kerak.

- 1-bosqich - OCR platformasidan foydalangan holda tomonlar o'rtasida olib boriladigan muzokaralar bosqichi.
- 2-bosqich - Fasilitatsiya bo'lib, bunda tomonlar bilan konsensusga erishish uchun o'zaro aloqada bo'lgan neytral shaxs tayinlanadi.
- 3-bosqich, bu yakuniy bosqich bo'lib, unda neytral shaxs tomonidan taqdim etilgan DSB ma'muri tomonlarni yakuniy qoidalar va shakllar haqida xabardor qiladi.

Onlayn tartibda tijorat arbitraj jarayonlarini olib borishning bir nechta protsessual tartiblarini va ularni an'anviy shakllardan farqli jihatlarini muhokama qilamiz:

Elektron vositalari bilan tuzilgan arbitraj bitimi. An'anaviy arbitrajlarda arbitrlik kelishivi yozma shaklda bo'lishi kerak. Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Nuu-York konvensiyasining 2-moddasida „Yozma kelishuv“ atmasi shartnomada taraflar tomonida imzolangan xatlar yoki telegrammalar almashinuvida mavjud bo'lgan arbitraj bandini o'z ichiga oladi¹³. Xalqaro arbitraj oid yana bir muhim nizom bu Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi. Yevropa

¹¹ Jana Herboczkova, "Certain Aspects of Onlayn Arbitration" <http://www.law.muni.cz/sborniky/dp08/files/pdf/mezinaro/herboczkova.pdf>.

¹²<https://blog.jusmundi.com/the-emergence-of-e-mediation-and-e-arbitration/>

¹³ Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards <https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media/documents/uncitral/en/new-york-convention-e.pdf>.



konvensiyasining 1-moddasi ikkinchi qismi a bandiga muvofiq, arbitraj kelilshuvi tomonlar tomonidan imzolangan, xatlar, telegrammalar almanishuvi yoki teleprinter orqali yuborilgan xabarlardagi va qonunlari arbitrajni talab qilmaydigan davlatlar o'rtasidagi munosabatlardagi arbitraj shartnomasidagi arbitraj bandini anglatadi. Kelishuv yozma shaklada, ular tomonidan ruxsat etilgan shaklda tuzilgan har qanday arbitrlik bitimi qonuniydir.

Xuddi shunday, O'zbekistoning Xalqaro tijorat arbitraj to'g'risidagi qonuni texnologik o'zgarishlarni istisno qilmaydi¹⁴. Qonuning 12-moddasiga ko'ra, Arbitraj kelishuvini yozma shaklda tuzish to'g'risidagi talab elektron xabar orqali, mabodo undagi axborot kelgusida undan foydalanish uchun ochiq bo'lsa, qanoatlantiriladi. Bunda asosan „kelishuv yozma, agar arbitraj kelishuvining mazmuni arbitraj kelishuvi yoki shartnoma og'izaki shaklada tuzilganligidan yoki tuzilmaganligidan qat'I nazar, taraflarning harakati asosida yoxud boshqa vositalar (elektron) yordamida biron-bir shaklda qayd etilgan bo'lsa, ...“. Shu sababli UNCITRAL namunaviy qonuni, Nyu-York konvensiyasi, va O'zbekiston xalqaro arbitraj qonunida arbitraj bitimi shakli bo'yicha chekovlar yo'q.

Yevropa hamjamiyatida bugungi kunda o'z boshqaruv faoliyatini yanada fuqarolar uchun qulayliklar yaratish maqsadida Yevropa Kengashida „elektron parlament”, „elektron qonunchilik”, „e-adliya”, „elektron vositachilik”, „elektron saylovlari”, „elektron referendum”, „elektron tashabbus”, „elektron sud”, „e-maslahatlar”, „elektron arizalar”, „elektron kampaniya”, „elektron so'rov”, „elektron sharh” va „sun'iy intellect” shu maqsadlarda ko'plab AKT bilan uzviy bog'liq bo'lgan tizimlarni joriy etmoqda¹⁵.

Shuningdek, onlayn arbitrajni tanlash afzallikkari shundan iboratki, ko'rileyotgan nizoni tezkor ko'rib chiqishda, vaqt va mablag'larni tejashda, ishni samarali ko'rib chiqish, 7/24 holatda ish faoliyatining mavjudligi va ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyati beradi. Onlayn arbitraj jarayonidagi aniqlangan kamchiliklar unda taqdim etilgan dalillarning haqiqiyligi va maxfiylik muammolari bilan bir qatorda elektron Arbitraj jarayonidagi uchun huquqiy sohadagi mavjud noaniqlik normalarining mavjudliligi hisoblanadi.

Shuni aytish muhimki, Xalqaro tijorat arbitraji faoliyatini elektronlashtirishda E-Arbitration-T platformasi yaratilgan bo'lib, unda mavjud nizolarni hal qilish uchun ishonchli va muqobil tizimni taklif etadi. Ya'ni dastlab, oddiy arbitr xizmatidan foydalanish yoki elektron arbitr xizmatidan foydalanish, hamda arbitraj joyini qaysi joyda ko'rish kabi masalalar. Ushbu platforma hozirgi jahon biznes sektori talab qiladigan darajadagi yuqori tezlik shuning bilan birga yuqori sifatni ta'minlaydigan elektron mexanizm sifatida ishlab chiqilgan.

Arbitraj sohasida Onlayn Arbitraj tizimi juda moslashuvchan vosita bo'lib, nizolarni hal qilish markazlariga tegishli ish masalasiga ko'ra, turli ishlarni ko'rishga moslashadigan onlayn xizmatlarni taklif qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, Yevropa Kengashining pozitsiyasiga ko'ra, elektron sudlov, elektron arbitrajni tanlash barcha manfaatdor taraflar tomonidan odil sudlovni amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatilayotgan

¹⁴ Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi O'zbekiston respublikasining qonuni. <https://lex.uz/docs/-5294106>.

¹⁵ Recommendation CM/REC(2007)11 of the committee of ministers to member states on promoting Freedom of expression and information in the new information and communications environment.



davlat xizmatlarining samaradorligi va sifatini oshirishda elektron aloqa va ma'lumotlar almashinushi, shuningdek, sud ma'lumotlariga kirishni o'z ichiga oladi¹⁶.

Arbitraj tomonlardan elektron bitimga qo'yiladidan imzo masalasiga to'xtalib o'tsak, O'zbekiston Respublikasining „Elektron raqamli imzo to'g'risida”gi qonuning 9-moddasiga muvofiq yuridik va shaxsning elektron imzosi bilan tasdiqlangan elektron hujjat yuridik shaxsning muhri yoki jismoniy shaxning qo'lda qo'yadigan imzo bilan tasdiqlangan qog'oz hujjatga tenglashtiriladi¹⁷.

Yoki, Elektron tijorat to'g'risidagi qonunning 14-moddasidagi Shartnomalar tuzishga doir umumiyl talablarda „shartnomalarni tuzish chog'ida qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida hujjatni o'z qo'li bilan imzolash talab qilingan hollarda elektron hujjat, agar shartnomalar tarifi tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash tartib-taomili bajarilsa, imzolangan deb hisoblanadi. Elektron tijoratdagi hujjatda hujjatni imzolagan shaxsning rozilagini ifodalaydigan hamda uni identifikasiya va autentifikasiya qilish imkonini beradigan elektron tasdiqlash usullari („SMS”, „Face-ID” va boshqalar) ham imzo sifatida tan olinadi”.

Elektron imzo bitim va shartnomalarda foydalanishni kafolatlaydi. Elektron imzo qo'lda imzolangan imzo bilan bir xil isbotiy ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, elektron imzo arbitrlik kelishuvlarida qo'llanilishi va Elektron imzo to'g'risidagi qonunga muvofiq to'liq amal qilishi mumkin. Biroq, agar tegishli elektron imzo ishlatilmagan bo'lsa va tomonlardan biri elektron pochta xabarini yubormaganligi da'vo qilsa, dalilar bilan bog'liq muammo yuzaga keladi. Xulosa qilib aytganda, ko'plab arbitraj taraqqiy etgan davlatlar qonunchiligiga ko'ra, tomonidan tuzilgan arbitrlik kelishuv elektron aloqalarga yo'l qo'yiladi va u to'liq samarali bo'lishi mumkin.

Elektron vositalar bilan olib boriladigan arbitraj muhokamasi. Asosan ish yuritish tartibini belgilashda taraflarning mustaqilligi muhim ro'l o'ynashi umume'tirof etilgan. Ushbu kontseptsiyaga qo'shimcha ravishda tomonlar protsessual qoidalarni xohlagan vaqtida o'zgartirish huquqiga ega. Bu qoida Nyu-York konvensiyasida ham mavjud. Nyu-York Konvensiyasining 5-moddasi d'banduga ko'ra arbitrlik organining tarkibi yoki arbitraj jarayoni tomonlarning kelishuviga muvofiq bo'lmasa yoki bunday kelishuv bo'lmasa, arbitrlik muhokamasi o'tkazilgan mamlakat qonunchiligiga muvofiq bo'lmasa qarorni tan olish va ijro etish rad etilishi mumkin. Shunga o'xshash, Evropa konvensiyasining 4-moddasiga muvofiq, arbitrlik bitimi taraflari arbitrajni kelishuv bo'yicha tashkil etishda erkendir.

O'zbekiston Respublikasi „Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida”gi qonunning 34-moddasida ko'rsatilishicha taraflar, ushbu qonun qoidalariiga rioya etish sharti bilan, arbitraj sudi tomonidan muhokamaning yuritilishi tartib-taomili to'g'risida o'z xohishiga ko'ra kelishib olishi mumkin. Asosa bunday kelishuv mavjud bo'lмаган taqdirda, arbitraj sudi ushbu qonun qoidalariiga rioya etgan holda arbitraj muhokamasini o'zi lozim deb hisoblagan tarzda yuritishi mumkin. Arbitraj sudiga berilgan vakolatlar har qanday

¹⁶ http://www.coe.int/t/dgsp/democracy/activities/ggis/cahde/2009/RecCM2009_1_and_Accomp_Docs/6647-0-ID8289-Recommendation%20on%20electronic%20democracy.pdf

¹⁷ Elektron raqamli imzo to'g'risidagi O'zbekiston respublikasining qonuni. <https://lex.uz/docs/-6234904>.



dalilning maqbulligini, aloqadorligini, muhimligini va ahamiyatliliginin aniqlashga doir vakolatlarni o'z ichiga oladi.

Nyu-York konvensiyasi, Yevropa konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasi qonuni agar taraflar arbitraj muhokamasini yuritish uchun elektron vositalardan foydalanishga rozi bo'lgan taqdirda, videokonferensiyalar orqali guvohlarni tinglash yoki hujjatlarni elektron shaklda uzatish va shu kabi elektron vositalardan foydalanishga kelishib olishga hech qanday to'sqinlik qilmaydi.

Asosiy tamoyil - tomonlarga teng munosabatda bo'lishdir. Ushbu tamoyilga ko'ra, tomonlar axborotdan teng foydalanish huquqiga ega, shuning sababdan ular ham teng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Masalan, agar tomonlardan birida CD-ROMlarni o'qish imkoniyati bo'lmasa, hujjatlarni CD-ROM orqali uzatishni majburlash qabul qilinishi mumkin emas. Mabodo amaldagi arbitraj qoidalari yozma ish yuritishni talab qilgan taqdirda, tomonlar o'z kelishuvlarida sud jarayoni uchun elektron vositalarni qabul qilishlarini aniq ko'rsatishlari kerak hisoblanadi. Bu qoidalarni buzish esa arbitraj kelishuvini buzish hisoblanadi, bu esa Nyu-York konvensiyasining 5-moddasining d bandiga muvofiq qarorni ijro etishni rad etishga olib kelishi mumkin.

Arbitraj joyi muhim ahamiyatga ega, sababi u qarorning milliyligi (Arbitraj sudi mahalliy sudlardan yordam so'raganda muhim ro'l o'ynaydi) va qarorni bekor qilish uchun mahalliy sudlarning yurisdiksiyasini belgilaydi¹⁸. Tomonlar arbitraj joyini tanlashda geografik joylashuvi, quylayliklarini hisobga olishlari va eng muhimi, qaror qabul qilinadigan davlatlarni tanlashlari kerek hisoblanadi. Tomonlar arbitraj joyini tanlashda geografik joylashuvi, imkoniyatlarini hisobga olishlari va eng muhimi, qonunlari xalqaro arbitraj haqida zamonaviy tasavvurga ega bo'lgan va Nyu-York konvensiyasining a'zosi bo'lgan davlatni tanlashlari kerak. Onlayn arbitrajda tomonlar va arbitrlar turli joylardan o'zaro hakamlik qilishlari mumkin¹⁹. Elektron arbitraj bo'ladimi yoki yo'qmi, agar tomonlar boshqacha qaror qilmagan bo'lsa, arbitrlar nizoni hech qanday eshituvtsiz hal qilishlari mumkin.

Arbitrlar arbitraj joyida yuzma-yuz uchrashishlari va qaror qabul qilishlari shart emas. Shunga ko'ra tomonlar arbitraj joyini aniqlagandan so'ng, barcha sud muhokamalari va sud majlislari elektron shaklda o'tkazilishi mumkin va arbitrlar faqat qarorning o'zida arbitrlik sudining joyini ko'rsatishlari va qarorni imzolashlari kerak. Sud qarori va Arbitra sudining joyi o'rtasida hech qanday bog'liqlik bo'lishi shart emas. Agar tomonlar arbitraj joyini ko'rsatmagan bo'salar, arbitraj sudi yoki arbitrlik muassasasi arbitrlik sudining joyini aniqlaydi²⁰. Bu qoida UNCITRAL namunaviy qonunining 20-moddasida ham keltiriladi „agar taraflar hakamlik muhokamasi joyini hal qilmagan bo'salar, hakamlik muhokamasi joyi ishning holatlaridan kelib chiqqan holda hakamlik sudi tomonidan belgilanadi”. Bu qoida O'zbekiston Respublikasi arbitraj to'g'risidagi qonunida shunga o'xshash qoida keltirilgan bo'lib, qonunning 35-moddasida taraflar arbitraj joyi to'g'risida oz xohishiga

¹⁸ Nicolas De Witt, „Onlayn International Arbitration: Nine Issues Crucial To Its Success”, The American Review Of International Arbitration 441, 451 (2001).

¹⁹ U.N. Conference on Trade and Development. Dispute Settlement Module 4.1, Course On Dispute Settlement document/edmmisc232add25_en.pdf.

²⁰ Isabelle Manevy, Onlayn Dispute Resolution: What Future? https://www.researchgate.net/publication/228792669_Onlayn_dispute_resolution_w_hat_future.



ko'ra kelishib olishi mumkin. Bunday kelishuv mavjud bo'lмаган тақдирда, арбитраж joyи арбитраж суди томонидан ish holatlarini, shu jumladan, taraflar uchun qulaylik omilini inobatga olgan holda belgilanishi ko'zda tutilgan.

Arbitrlarni tanlash. Odatda taraflar hakamlarni belgilaydilar. Biroq томонлар bir shaxs yoki muassasaga hakamlik sudyasini tanlashga ruxsat berishi mumkin. UNCITRAL namunaviy qonuniga ko'ra, томонлар arbitrlar sonini belgilashda erkendir. Bunday qaror bo'lmasa, arbitrlar soni uchta bo'lishi kerak (10-modda). Tomonlар arbitrlik sudyasini tayinlash tartibi to'g'risida ham kelishib olishlari mumkin (11-modda). Shu sababdan ham, arbitrlar elektron arbitraj institutiga arbitrlik sudyalarini tanlashiga ruxsat berishlari mumkinligini aytish mumkin. Arbitrlarni elektron tanlash kompyuter tanlash yoki kompyuter chizish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin²¹.

Onlayn arbitrajda maxfiylik. Maxfiylik an'anaviy arbitrajning afzalligi ekanligi ma'lum. Onlayn arbitrajda ham maxfiylik istalgan xususiyatdir.

Onlayn arbitraj Internetda amalga oshirilganligi sababli, ruxsatsiz kirish, shaxsni tekshirish, xizmat ko'rsatishni rad etish, tizimning ishdan chiqishi va viruslar kabi muammolar bo'lishi mumkin. Ushbu muammolarni texnik yechimlar orqali minimallashtirish mumkin, ammo, albatta, arbitraj institatlari va arbitrlar ma'lumotlar xavfsizligini oshirish uchun texnologiyaning rivojlanishini diqqat bilan kuzatib borishlari kerak. Biroq, olib borilgan ilmiy izlanishlar, allaqachon onlayn arbitrajda ham, an'anaviy arbitrajda ham 100% maxfiylik mumkin emasligini tan olgan.

Onlayn arbitraj qarorlarini e'lon qilish bo'yicha turli xil fikrlar mavjud. Bazilar, arbitraj sud amaliyotini rivojlantirishga imkon berish uchun qarorlar e'lon qilinishi kerak, deb hisoblashadi²². Shaffoflik, shuningdek, onlayn arbitrajga bo'lgan ishonchni rivojlantirishga yordam beradi²³. Biroq, qarorni chop etishda томонлarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiylicha saqlangan bo'lishi kerak.

Onlayn arbitrajning afzallikkali:

- Internet nizo томонлари uchun neytral joy;
- Taraflar va arbitrlik sudyalari onlayn arbitrajda sud majlislariga borishlari shart emas; audio va videokonferensaloqa imkoniyati томонларга safar xarajatlari va arbitrlik sudini tashkil etish xarajatlarini kamaytirish uchun masofadan turib uchrashuvlar va tinglovlarni o'tkazish imkonini beradi;
- Elektron tijorat va boshqa nizolarni hal qilishda onlayn xalqaro arbitrajdan foydalanish ham vaqtini tejaydi va samaradorlikni oshiradi – томонлар web-saytga kirish va jarayon uchun elektron shakllarni to'ldirish orqali da'vo qo'zg'atish va himoya qilish imkonini beradi. Onlayn arbitraj arbitrajning tezligi va samaradorligini oshiradi; web-ga asoslangan hujjatlarni topshirish tizimlari томонларга ko'plab hujjatlarni bir zumda, istalgan masofada va deyarli hech qanday to'lovsiz topshirishga yordam beradi;

²¹ The UNCITRAL Model Law attaches great importance to the disputants' freedom of determination.

https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media/documents/uncitral/en/19-09955_e_ebook.pdf.

²² Under Internet Corporation for Assigned Names and Numbers (ICANN), Rules for Uniform Domain Name Dispute Resolution Policy, all decisions are published on the ICANN website. See the Rules at <http://www.icann.org/dndr/udrp/uniform.rules.htm>.

²³ De Witt, supra note 26 at 464 <https://casetext.com/case/dewitt-v-dewitt-4>.



- Onlayn arbitrajning qulay tomonlaridan biri yana shundaki, taqdim etilgan hujjatlar avtomatlashtirilgan hujjat aylanish tizimlari orqali arxivlanishi va istalgan vaqtida istalgan joydan ko'rib chiqilishi mumkin.

Onlayn arbitrajning kamchiliklari. Ushbu protsedura ham ma'lum muammolarga ega. Ulardan ba'zilari quyidagilar:

- Onlayn tizim foydalanuvchilari orasida ishonchning yo'qligi;
- Texnologiyadan foydalanishning tengsizligi;
- Texnologiya to'rtinchi tomon sifatida;
- Elektron hujjatlarni tasdiqlash katta muammo;
- Xavfsizlikning yo'qligi;
- Odil sudlovga erishish muammosi
- Inson elementining yo'qolishi;
- Til va madaniy to'siqlar;
- Boshqaruv qonunchiligining bir xilligi yo'q.

XULOSA

Onlayn tijorat arbitraj tez, iqtisodiy va samarali bo'lgani uchun nizolarni hal qilishning afzal usuli sifatida tan olinadi. Garchi bu nizolarni hal qilishning yangi usuli bo'lsa ham, onlayn arbitraj hali ham an'anaviy arbitraj qoidalari bilan olib borilmoqda. Biroq, ba'zi noaniqliklar mavjud, ammo bu noaniqliklarning oldini olish uchun Nyu York konvensiyasi keng talqin qilinishi orqali aniqlik kiritish mumkin. Shuningdek, onlayn arbitrajda tomonlar va arbitrlar har doim amaldagi arbitraj kelishuvlari va tartiblarining qonuniyligini, qonunni tanlashni, arbitraj joyini va qarorlar shaklini hisobga olishlari ma'qulroq bo'ladi. Nima uchun deganda, ushbu ehtiyyot choralar onlayn arbitrajning mavjud milliy va xalqaro shartnomalar doirasida ishlashiga yordam beradi. Biroq, onlayn arbitraj vaqt o'tishi bilan o'z qoidalari ishlab chiqishi lozim deb hisoblaymiz. Xulosa qilib shuni aytganda, onlayn arbitraj amaliyotda keng qo'llanilmoqda va shuning uchun onlayn arbitraj qarorlari an'anaviy arbitraj qarorlari bilan bir xil ta'sirga ega bo'lishi kerak. Agarda kelishi mumkin bo'lgan texnologik to'siqlarni tomonlarning o'zlari shartnomada yuqorida ko'rsatilgan tafsilotlarni ko'rsatish yoki onlayn arbitraj institutlari tomonidan belgilangan qoidalarni qabul qilish orqali bartaraf etishlari mumkin. Onlayn arbitraj qarorlari majburiy va yakuniy bo'lib, faqat an'anaviy arbitrlik qarorlari shuningdek, cheklangan protsessual asoslardagina bekor qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.nortonrosefulbright.com/en/knowledge/publications/7le0aale/on-ayn-dispute-resolution-and-electronic-hearings>
2. Hornle, Julia, Onlayn Dispute Resolution- More Than the Emperor's New Clothes, The ICFAI Journal of Alternative Dispute Resolution, Vol. 03 (04), October 2004, pp.29-59 (29)
3. Jana Herboczkova, "Certain Aspects of Onlayn Arbitration"
<http://www.law.muni.cz/sborniky/dp08/files/pdf/mezinaro/herboczkova.pdf>.



4. <https://blog.jusmundi.com/the-emergence-of-e-mediation-and-e-arbitration/>
5. Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards
<https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media/documents/uncitral/en/new-york-convention-e.pdf>.
6. Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risidagi O‘zbekiston respublikasining qonuni.
<https://lex.uz/docs/-5294106>.
7. Recommendation CM/REC(2007)11 of the committee of ministers to member states on promoting Freedom of expression and information in the new information and communications environment
8. http://www.coe.int/t/dgap/democracy/activities/ggis/cahde/2009/RecCM2009_1_and_Accomp_Docs/6647-0-ID8289-Recommendation%20on%20electronic%20democracy.pdf
9. Elektron raqamli imzo to‘g‘risidagi O‘zbekiston respublikasining qonuni.
<https://lex.uz/docs/-6234904>
10. Nicolas De Witt, „Onlayn International Arbitration: Nine Issues Crucial To Its Success”, The American Review Of International Arbitration 441, 451 (2001).
11. U.N. Conference on Trade and Development. Dispute Settlement Module 4.1, Course On Dispute Settlement document/edmmisc232add25_en.pdf.
12. Isabelle Manevy, Onlayn Dispute Resolution: What Future?
https://www.researchgate.net/publication/228792669_Onlayn_dispute_resolution_what_future.
13. The UNCITRAL Model Law attaches great importance to the disputants’ freedom of determination. https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media/documents/uncitral/en/19-09955_e_ebook.pdf.
14. Under Internet Corporation for Assigned Names and Numbers (ICANN), Rules for Uniform Domain Name Dispute Resolution Policy, all decisions are published on the ICANN website. See the Rules at http://www.icann.org/dndr/udrp/uniform_rules.htm.
15. De Witt, supra note 26 at 464 <https://casetext.com/case/dewitt-v-dewitt-4>.